TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING AYRIM DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH UCHUN BA'ZI BIR USLUBIY TAVSIYALAR

Haydarova Kamarbasta -Andijon viloyati Buloqboshi pedagogika kolleji katta o'qituvchisi, magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini oshirish maqsadida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning ayrim dolzarb muammolari va ularni bartaraf etish uchun ba'zi bir uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, oliy ta'lim, ta'lim-tarbiya, nazorat qilish, baho, ball, baholash, ta'lim sifati, iqtidor.

Hozirda amal qilinayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"[6]gi 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'ida Oliy ta'limda talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning turlari va shakllari, talaba erishishi mumkin bo'lgan baho va ballarining miqdorlari yetarlicha aniq va ravshan belgilab qo'yilganligi bois, ular ko'pchilikda e'tiroz yoki tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmaydi. Lekin shuni ham e'tirof etish kerakki, bu meyoriy hujjatlarda talabalar bilimini baholashning boshlang'ich va eng muhim bo'g'ini-asosi (poydevori) bo'lgan talabalarning dars-mashg'ulotlarni o'zlashtirganlik sifat darajasini og'zaki so'rov jarayonida va yozma nazorat ishlarida kundalik baholashning mezonlari (kriteriyalari) va shu baholash ishlarini qayd qilish usullari (rasmiy hujjatlashtirish darajasida) yetarlicha aniq va batafsil ko'rsatilmagan. Bu xol amalda talaba bilimini baholash ishlarini o'qituvchilarning faqat shaxsiy tajriba, imkoniyat va o'z ishiga mas'ullik xissiyoti doirasida amalga oshirilishiga olib kelmoqda.

Amalda qo'llanilinayotgan va me'yoriy hujjatlarda qo'llanishi tavsiya etilgan boshqa qaydnomalar baholashning faqat natijaviy (pirovard) ko'rsatkichlarinigina aks ettirib, ular talabalar bilimini "kundalik" joriy nazorat jarayonidagi baholash natijalarini qayd etib borish yoki tahlil etish imkoniyatini bermaydi. Hozirda amalda qo'llanilayotgan HEMIS dasturi esa bu vazifani baholash talablari doirasida mazmunan va shaklan to'laqonli bajarilishini mutlaqo ta'minlay olmaydi.

[6] O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"[6]gi 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'i

Muallifning 2015-2019 yillarda Maktabgacha ta'lim yo'nalishi Guliston davlat universitetida, 2021-2023 yillarda Andijon davlat Pedagogika institutida magistrantlik paytlarida va keyinchalik Andijon viloyati Buloqboshi pedagogika kollejidagi ish faoliyati davomida bu vazifalarni bajarish maqsadida ayrim hamkasb pedagoglar bilan o'zaro muloqot va tajriba almashish natijasida yechimini topish maqsadida qilgan harakatlari, ularning Oliy ta'lim sohasidagi avvalgi reyting tizimining qo'llanilishiga nisbatan keskin tarzda bildirilgan salbiy munosabatlari, yoki hozirda amalda qo'llanilayotgan baholash tizimidagi 2,3,4,5 baholarga baholab, keyin ularni me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan ko'rsatkichlarga muqobil ballarida baholash kerakligi to'g'risidagi, "…agar talaba o'tilgan dars-mashg'ulotlarini "undayroq" 3 (4 yoki 5) bahoga o'zlashtirgan bo'lsa, "bundayroq", "sal bundayroq" 3 (4 yoki 5)ga o'zlashtirsa, "ozgina bundayroq"ballarida baholanadi…qabilidagi talaba bilimini baholash tizimining mazmun-mohiyatiga zid bo'lgan o'ta subyektiv fikr va muloxazalardan iborat ekanligidan, kutilgan ijobiy natijalarni bermadi. Oldingi reyting tizimi va amalda qo'llanilayotgan qaydnomalar o'zlashtirishning faqat natijaviy baholarni aks ettirib, ularni nima uchun qanday me'zonlar asosida qo'yilganligini tahlil qilish imkonini bermaydi, "kundalik" joriy nazoratni olib borish va baholash ishlarini to'laqonli bajarish uchun moslashmagan.

"Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 2020-2021- o'quv yilidan boshlab ba'zi oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit to'plash va ko'chirishning Yevropa tizimi asosida kredit-modul tizimini joriy etish boshlandi.2021-2022 o'quv yilidan boshlab esa, bu tizimni to'liq joriy etishga o'tildi. Kredit-modul tizimini joriy etishdagi eng katta muammolardan biri bu biron bir oliy ta'lim muassasasida alohida bitta fan misolida talabaning o'zlashtirgan va o'zlashtirayotgan bilimini baholashning jadvali va mezonlari ishlab chiqilmadi"[7].

Amalda qo'llanilishi taklif etilayotgan mazkur uslub asosida bilim olishni, bilimning sifat darajasi saviyasi va asosliligini ta'minlovchi omillarning bajarilishiga talaba tomonidan qay qarajada rioya qilinganligini, talabaning o'tilgan har bir 1juftlik dars-mashg'ulot bo'yicha og'zaki so'rov yoki test savollariga berilgan javoblarini, hamda uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi umumiy faolligini muntazam va o'z vaqtida-"kundalik" nazorat olib borish va bevosita to'g'ridan to'g'ri muayyan qiymatlardagi ballarda (yoki baholarda) baholash yotib, bunda baholashning mezoni sifatida quyidagi jadvalda (1-shaklga qaralsin) keltirilgan (A; B; D; E punkt)lar qabul qilingan:

[7] Mustafayev U.U. Oliy ta'limda talabalar bilimini baholash amaliyoti: Muammo va yechimlar //Scientific Journal 2022-5.947-1.7 www.oriens.uz

Talabalar bilimini ballarda (yoki baholarda) baholash mezonlari (kriteriylari)	Ballar (yoki baholar)dagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari (ball)
1. Bilim olishini, uning sifat darajasini ta'minlovchi omil va talabalarning bajarilishiga talaba tomonidan qay darajada rioya qilinganligini baholash mezonlari: A.Talabaning dars-mashg'ulotida qatnashgan-qatnashmaganligi: - talaba dars-mashg'ulotda qatnashgan bo'lsa; - talaba dars mashg'ulotga qatnashmagan bo'lsa (uzrli yoki uzrsiz sabablardan qat'iy nazar); B.Talaba o'tilayotgan fandan uning mustaqil tayyorlanishi uchun davlat ta'lim standartlari talablariga javob beruvchi darslik va fan o'qituvchisining ma'ruza matni, turli ko'rsatma va topshiriqlarning hamda talabada o'tilgan dars-mashg'ulot bo'yicha mustaqil tayyorlanganligini ko'rsatuvchi- talaba o'z so'zi va qo'li bilan yozgan konspekt, referat va boshqa ma'lumotlarning borligi uchun:	1 ball yoki (1 baho) 0 raqami yoki (-)shartli belgisi; 2 ball yoki (2 baho)
2. Talabaning o'tilgan dars-mashg'ulotini o'zlashtirganlik sifat darajasini (og'zaki so'rov va test savollariga bergan javoblari natijalariga ko'ra) reyting ballarida baholash mezonlari: D.1) talabaning og'zaki so'rovda mutlaqo tayyor emasligi yoki "qoniqarsiz" bahoga javob bergani (test savollarining 39% va undan kamiga to'g'ri javob berilgani) uchun: 2) dars-mashg'uloti yuzaki yoki chala o'zlashtirilganligi (test savollarining 40-54% to'g'ri javob berganligi) uchun 3) "qoniqarli" javob (test savollarining 55-70% to'g'ri javob berilganligi) uchun: 4) "yaxshi"ga baholangan bilim (test savollarining 71,0-85% to'g'ri javob berilganligi) uchun: 5) maksimal "yaxshi" (shartli ravishda minimal "a'lo") bahoga o'zlashtirilgan dars-mashg'ulot (test savollarining 80-90% to'g'ri javob berilganligi) uchun: 6) "A'lo"ga baholangan bilim (test savollarining 86-100% berilgan javob) uchun (bilimni "a'lo"ga baholash asosida talabaning dars-mashg'ulotini mukammal o'zlashtirganligidan tashqari uning dars-mashg'ulotlarni o'tish jarayonidagi faolligi va eng muhimi fanning o'tilgan mavzulari tayanch tushunchalari bo'yicha yetarli asosli bilimga ega ekanligi yotadi);	0 raqami yoki (-) shartli belgisi 1 ball yoki (1 baho) 2 ball yoki (2 baho) 3 ball yoki (3 baho) 4 ball yoki (4 baho) 5ball yoki (5 baho)
3. E.Talabaning mavjud ta'lim-tarbiya tizimida o'quv-mehnat intizomi, o'quv-ilmiy va ommaviy-tashkiliy ishlardagi faolligi, olimpiada, sport musobaqalari va ijodiy ko'riklarda qatnashganligi va boshqa ijtimoiy-ahamiyatli faoliyatlarini baholash uchun;	1ball yoki (1,2,3,4,5 baho)

1-shakl. Talabalar bilimini baholash mezon (kriteriy)lari va ularga muqobil ballari.

Talabalar bilimi, ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi mehnat-intizomi va ijtimoiy-ahamiyatli faoliyatlarini reyting tizimida nazorat qilish va baholash ishlarini yuqorida keltirilgan mezonlar asosida quyidagi reyting ballarini hisoblash jadvalida (2-shaklga qaralsin) olib borilsa, quyidagi afzalliklarga ega:

- Talabaning fanni o'zlashtirishini o'z vaqtida va muntazam, hamda o'tilgan har bir 1juftlik dars-mashg'ulot bo'yicha nazorat qilish va baholash imkonining borligi;
- Talabalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi tartib-intizomi, bilimini va ijtimoiy-ahamiyatli, faolliklarini alohida-alohida (differensiyalashgan tarzda) baholashning mumkinligi;
- Talabaning ballarida o'zlashtirish darajasini nisbatan aniq (1 ballgacha 1 bahogacha aniqlikda) baholash imkoning borligi;
- Ballarni hisoblashning oson va qulayligi;
- Baholash ishlarining ochiq-oydinligi va oshkoraligi (aynan shu jadval reyting nazorati ekrani sifatida qo'llanilishi mumkinligini hisobga olganda);
- Jadvalning amalda qo'llash texnologiyasining osonligi;
- Ushbu jadvalning rasmiy hujjat sifatida har bir juftlik dars-mashg'ulot uchun o'z vaqtida va muntazam to'ldirib borishlik sharti bajarilishining darkorligi (bu esa, baholash tizimining asosiy talablaridan biridir) talaba va fan o'qituvchilarning o'z burchi va vazifalariga ma'sulligini oshirishi;
- Ushbu ballarni xisoblash (baholash) jadvalining amalda qo'llanilishi fan o'qituvchilarini shaxsan o'zlarini boshqa mavjud qaydnomalarni tuzish ishlaridan ozod qilishligi;
- Talabalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyatini bu jadval asosida qayd qilib borishning faqat "Defektologiya" fani ta'limi jarayonidagina emas, balki boshqa fanlar uchun ham qo'llanishi mumkinligi.

Guliston davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim fakulteti_____kurs_____guruh talabalarining _____semestri uchun ballarni xisoblash jadvali (qaydnomasi)

Ma'ruza o'qituvchisi:_____ semestr uchun maksimal ball_____
Amaliyot o'qituvchisi:_____ semestr uchun saralash ball_____

№	Talabaning familiyasi va ismi	Haftadagi i.d.m. t/r	J.B. turlari	Dars-mashg'lot o'tilgan sana va joriy baholash natijalari																Semester yakuniy o'zlashtirish ko'rsatkichlari					
				Kun, oy, yil					Kun, oy, yil					Kun, oy, yil					Kun, oy, yil					EJ.B.		O.B.		EJ.B.+O.B.	
				A	B	D	E	E_1	A	B	D	E	E_2	A	B	D	E	E 3	A	B	D	E	E_4	ball	%	ball	%	ball	%
1	2	3	4	5					6					7					8					9	10	11	12	13	14
	Ravshanova Muhabbat	1	K.J. B.																									
		2	K.J. B.																									

2-Shakl. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash (ballarni hisoblash) jadvali

Qisqartirilgan so‘zlar va indekslar izohi:

Jadvalning 1-ustunida: T/R—tartib raqami;

-<<- 3-ustunida: j.d.m. —juftlik dars mashg‘ulot;

-<<- 4-ustunida: J.B —joriy baholash;

-<<- -<<- : K.J.B. –“kundalik” baholash

-<<- 5-10 ustunlarida: A;B;D;E —“kundalik” va joriy baholashlarini bajarish uchun ballarni (baho) qo‘yish mezonlari (1-shaklga qaralsin);

E_1 E_2 E_3 E_4 — “kundalik” ballarning 1-juftlik dars-mashg‘ulot bo‘yicha yig‘indisi;

-<<- 11-12 ustunlar: E J.B. —semestr uchun joriy baholash ballari yig‘indisi va uning foizlardagi qiymati;

-<<- 13-14 ustunlar O.B. —oraliq baholash bali va uning foizlardagi qiymati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2022-yil 28-yanvardagi videoselektor yig‘ilishida “najot maktabda, najot tarbiyada, najot ilmda” degan g‘oyasi barcha uchun ezgu maqsadga aylanishi kerak. Chunki, maktab, tarbiya va ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlariga kadrlarni oliy ta’lim muassasalari tayyorlaydi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning “Pedagoglarning dars o‘tish mahorati yetarli emas. Ular o‘quvchilarga faqatgina o‘zi “chala bilgan” narsalarni o‘rgata oladi”[8]degan fikri oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari tayyorlagan kadrlarining bilimi noto‘g‘ri baholanganligini anglatadi. Shuning uchun bilimni baholash va bu indikator samarali ishlashi uchun yangi mexanizm kerak[9] . Bugungi kunda ziyo maskanlarida davomatga katta e’tibor qilinayotga ekan, tavsiya etilayotgan ish davomatga ham ball qo‘yadi ham baholaydi.

Xulosa qilib aytganda, amalda qo‘llanilishi taklif qilinayotgan ushbu jadval talabalar bilimini nazorat qilish va baholash ishlarini talablar doirasida nisbatan to‘laqonli bajarishini ta’minlashi bilan birga, u yana, talabalarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi davomati, tartib-intizomi, bilimi va umumiy faolliklari uchun qo‘yilgan ballarning (baholarning) qay darajada obyektiv va adolatli ekanligini tahlil qilish imkonini beruvchi yuridik hujjat vazifasini o‘tashligi mumkinligi bilan ham alohida e’tiborga molikdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”[1]gi 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug‘i

2. Mirziyoyev Sh. Maktab ta’limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishdagi ma’ruzasidan. 2022-yil 28- yanvar.

[8] Mirziyoyev Sh. Maktab ta’limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig’ilishdagi ma’ruzasidan. 2022-yil 28- yanvar

[9] Mustafayev U.U. Oliy ta’limda talabalar bilimini baholash amaliyoti: Muammo va yechimlar //Scientific Journal 2022-5.947-1.7